

## **KIZIL O'SIMLIGI NAVLARIDA FENOLOGIK FAZALAR O'TISH MUDDATLARI**

***Reypnazarova Gulperiyzat Nukusbayevna***

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti q.x.f.f.d*

***Eshqobilova Karomat Baxtiyor qizi***

*Toshkent davlat agrar unversiteti talabasi*

***Rahmonberdiyeva Rohila Baxtiyor qizi***

*Toshkent davlat agrar unversiteti talabasi*

***Annotatsiya.*** *Ilmiy maqolada Toshkent viloyati sharoitida kizil mevali o'simligining Vlademirskiy, Red star, Xelen navlarni morfobiologik hususiyatlarni o'rganish, o'simlik novdalarini o'sishi va rivojlanishi o'simlik holatidan va ularda kechadigan fizologik jarayonlarni kechishiga bog'liqligi va har bir fenofaza uchun novdalarni eng uzun, o'rtacha va eng past o'sish ko'rsatkichlarining muddatlari aniqlandi.*

***Kalit so'zlar:*** *Kizil o'simligi, navlar, harorat, novda, kurtak, barg, o'sish dinamikasi,*

Bugungi kunda dunyoda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu sababli noyob bo'lgan, respublika hududida kam tarqalgan mevali o'simliklarni introduksiya qilish va iqlimlashtirishda muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Mevali o'simliklarni introduksiya qilish yangi tuproq va iqlim sharoitida rivojlanishning fenologik fazalarining o'tishi, mevali o'simliklarning biologik faolligini o'rganish, atrof-muhit omillariga moslashuv jarayonlarini tahlil etish, o'simlikning mavsumiy o'zgaruvchanligini ta'minlaydigan iqlim o'zgarishlariga jadal moslashish xususiyatlarini o'rganish va ijobiy natijalarni ishlab chiqarishga joriy etish muhim vazifa hisoblanadi. Kizil mevali o'simlik bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida katta maydonlarda yetishtirilib kelinmoqda. Hozirda respublikamizda ham noyob, kam

tarqalgan mevali o'simliklarni yetishtirishga mutaxassislar va mevachilik bilan shug'ullanuvchi dehqon fermer xo'jaliklarida katta qiziqishlar uyg'onmoqda. Respublikamiz tuproq-iqlimi sharoitlarida ushbu kizil mevali o'simlik navlarining o'sishi, rivojlanishini va morfo-biologik xususiyatlarini o'rganish hamda kizil mevali o'simlik ko'chatlarini yetishtirish orqali ushbu meva turining plantatsiyalarini barpo etishda kizil mevali o'simlikni o'rganishda, ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi. Shu sabali biz tajribalarimizda kizil o'simligini respublikamizga introduksiya qilingan navlarini ma'lum bir xususiyatlarini o'rganish maqsadida 2020-2023 yillar davomida akademik M.Mirzayev nomidagi mevachilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy tadqiqot instituti tajriba maydonida kizil mevali o'simlikning Vladimirskiy, Red Star va Helen, navlarining o'sish, rivojlanishi va fenologik fazalarning o'tishi davomiyligi hamda muddati, o'simliklarda kechadigan fiziologik va biokimyoviy jarayonlar, morfologik hamda biologik o'zgarishlar bo'yicha tajribalar olib borildi. Tajribalarimizda biz o'rganayotgan kizil mevali o'simligining introduksiya qilingan navlarini vegetatsiya davridagi o'sish kuchi, rivojlanish davomidagi vegetatsiya fazasining o'tish davomiyligi, o'simlik novdalarini umumiy o'sish uzunligi, shoxlanishi, barg bilan qoplanish, barg sathining o'lchami va shu kabi bir qancha biometrik ko'rsatkichlari fenologik kuzatuvlar davomida qayd etib borildi va tahlil etildi. Ilmiy manbalardan bizga ma'lumki o'simliklarning rivojlanishi bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish davri bilan izohlanadi. O'simliklarda yillar davomidagi ma'lum bir o'zgarishlar har xil tashqi muhit omillari ta'sirida, o'simlikning genetik xususiyatlari bilan bog'liq holda fenologik kuzatuvlar davomida baholanib boriladi. Bunda o'simlikdagi ma'lum bir xo'jalik va morfo-biologik belgi va xususiyatlarni jadalligi yoki aksincha sust kechishi kuzatiladi (Klimenko, 1990; Kravchuk, 2003).

Kizil mevali o'simlik navlarida ham boshqa mevali o'simliklar singari ma'lum bir fenologik fazalarni samarali bo'lishi haroratlar yig'indisining mos bo'lishi bilan kuzatila boshlandi. Bundan aytish mumkinki o'simlikda kechadigan fenologik fazalar turli yillarda turlicha bo'lishi tajribalarimiz davomida kuzatildi. O'simliklarda rivojlanish

bosqishlarning start olishi qish mavsumining iliq yoki sovuq bo'lishiga bog'liq bo'lishi tajribalarimiz davomida aniqlandi. Qish oylarida havo harorati keskin past bo'lgan vaqtlarda o'simlik kurtaklarini uyg'onishi odatda kechikishi kuzatildi. (2023 yil yanvar, fevral). Biz tajribalarimizni olib borgan hudud Toshkent viloyatining iqlim sharoitida kizil mevali o'simlikning fenologik kuzatuvlari, vegetatsiya davrida fenologik fazalarni o'tish muddati generativ va vegetativ organlarni dastlabki rivojlanish bosqichlari, gul kurtaklarni uyg'onishi, yoppasiga gullash davri, vegetativ kurtaklarni uyg'onishi va yoppasiga barglarni hosil bo'lishi va novdalarni o'sish jarayoni, mevalarni tugishi va ommoviy pishish muddatlari kizil mevali o'simlikning navlari orasida quyidagicha farqlanishlar bo'lganligi kuzatildi. Biz Toshkent viloyati sharoitida olib borilayotgan tajribalarimizda Kizil o'simligining fenofazalari, o'sishi va rivojlanish bosqichlarida 2021 yilgi olib borilgan tadqiqotlarda shuni ko'rish mumkinki boshqa danakli o'simliklar kabi kizil o'simligida ham barglari shakllanmasdan oldin gul kurtaklarning paydo bo'lishi va yoppasiga gullash fazasini kuzatishimiz mumkin bo'ladi. Bunda Vladimirskiy navimizda gul kurtaklarining paydo bo'lish vaqti 2021-yil fevral oyining II-dekadasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, Red star navida esa Vladimirskiy navidan farqli ravishda ikki kun oldin gul kurtaklarining paydo bo'lishini ko'rishimiz mumkun. Kizil o'simligining Helen navida esa yuqorida keltirilgan navlardagiga nisbatan gul kurtaklarining paydo bo'lishi Vladimirskiy naviga nisbatan ikki kun va Red Star naviga nisbatan to'rt kun kechroq gul kurtaklarining uyg'onishi kuzatildi. Kizil o'simligining yoppasiga gullash muddatlarini kuzatganimizda navlararo 2-4 kun tofovut borligi kuzatildi. Jumladan Vladimirsikiy navida fevral oyining ikkinchi dekadasi yani 26 fevral sanasiga to'g'ri keladi. Red star navida esa gul kurtaklarning yozilib to'liq yoppasiga gullash vaqti fevral oyining 24 sanasiga to'g'ri kelganligi kuzatildi. Budan ko'rinib turganidek bu jarayon Vladimirskiy navidan 2 kun oldinroq boshlanganligi aniqlandi. Helen navida esa boshqa navlarga nisbatan gullash muddati sal kechikib, tadqiqotlarimizda o'rganilayotgan boshqa navlarga nisbatan 2-4 kunga gullash muddati kechroq bo'lganligi kuzatildi.

## Xulosa

Qish oylarida havo harorati keskin past bo'lgan vaqtlarda o'simlik kurtaklarini uyg'onishi odatda kechikishi kuzatildi. Jumladan uch yil mobaynida olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasi shuni ko'rsatdiki 2021 yilda gul kurtaklarining paydo bo'lish vaqti Vladimirskiy va Helen naviga nisbatan Red star navida ertaroq bo'lganligi kuzatildi. Kizil o'simligining yoppasiga gullash muddatlarida esa Red star va Vladimirskiy navlarida Helen naviga nisbatan gullash vaqti ertaroq fevral oyining 24-26 sanasiga to'g'ri kelganligi kuzatildi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ардашева О.А., Федоров А.В, Черемных Е.Н. ВЕСТНИК Ижевской государственной сельскохозяйственной академии// Научно-практический журнал №4 (60) 2019.
2. Аргир Зхивондов, Нели Керанова, Светла Пандова Журнал оф Анимал анд Планта Ссиэнсэс//Публикацион дате 31/10/2019, Пагес 7153-7161.
3. Анциферов А.В. Кизил с мужском характером / Вестн. Цветовода 2009. №22.
4. Блейз А. И. Энциклопедия орехов и диких ягод/ Олма-ПРЕСС, 2000.- 335с
5. Рейпназарова Г.Н., Кизил (*Cornus mascula* L.) нинг биологик-хўжалик тавсифи ва кўчатларини етиштириш технологиясини ишлаб чиқиш//Автореферат 12.02.24
6. Reypnazarova G.N. Morphometric indicators of the fruits of the red plant. // The Role of Sciences in the Formation of Unusual Thinking Skills in Young students; International Scientific-Practical (Crech) published 2023 – 06 – 04.P 156-158.